
Tabriklaymiz!

Xalqimizda “Bo’ladigan bola-boshidan ma’lum” degan naql bor. Shu ma’noda, bugungi kunda bolajonlarimizning o’z yo’nalish va iqtidorini anglagan holda, viloyat, respublika va jahon miqyosida erishib borayotgan yutuqlari qalbimizni quvnatib, dillarimizni faxr-u iftixorga to’ldirmoqda.

Jumladan, Qo’shtepa tumanidagi 49-maktabning 3-sinf o’quvchisi Gavxaroy Olimova Yosh mental arifmetikachilar olimpiadasi respublika bosqichida oliy o’rinni qo’lga kiritdi va mutloq g’olib deb topildi. Endi u Mental arifmetika bo’yicha Xalqaro olimpiadada respublikamiz sharafini himoya qiladi. Biz ham barcha tumandoshlarimiz nomidan Gavxaroy Olimovaga omad tilaymiz!

2024-10-21 16:57:29